

Ahmad Yassaviy ta'limotida komil inson konsepsiyasi

Xusnida Abdulqosim-qizi G'anijonova

Zilola Faxriddin-qizi Keldiyeva

Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviyning pedagogik g'oyalari tarixiy-ma'naviy manbalar asosida tahlil qilinadi. Unda Yassaviy ta'limotining markazida turgan komil inson konsepsiyasi, ustoz-shogird munosabatlari, axloqiy tarbiya, ma'naviy poklanish, mehnat va xizmat tarbiyasi kabi tamoyillar yoritiladi. Shuningdek, uning hikmatlarida ifodalangan tarbiyaviy qarashlar pedagogik nuqtai nazardan sharhlanib, bosqichma-bosqich kamolot g'oyasi ochib beriladi. Maqolada Yassaviy merosining nafaqat tasavvufiy, balki tarbiyaviy-pedagogik ahamiyati asoslab berilib, uning g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlikda talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassaviy, pedagogik g'oya, komil inson, ma'naviy tarbiya, axloqiy fazilatlar, ustoz-shogird an'anasi, tasavvuf ta'limoti, bosqichma-bosqich kamolot, mehnat tarbiyasi, o'zini anglash, hikmat, xalqchillik, ijtimoiy mas'uliyat, ruhiy poklanish, tarbiya konsepsiyasi

The concept of the perfect man in the teachings of Ahmad Yassavi

Khusnida Abdulkasim-kizi Ganijonova

Zilola Fakhriddin-kizi Keldiyeva

Scientific advisor: M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the pedagogical ideas of Ahmad Yassavi based on historical and spiritual sources. It highlights the concept of the perfect man at the heart of Yassavi's teachings, principles such as teacher-student relations, moral education, spiritual purification, labor and service education. Also, the educational views expressed in his wisdom are interpreted from a pedagogical perspective, gradually revealing the idea of perfection. The article substantiates not only the mystical, but also the educational and pedagogical significance of Yassavi's legacy, and interprets his ideas in harmony with the modern education system.

Keywords: Ahmad Yassavi, pedagogical idea, perfect person, spiritual education, moral qualities, teacher-student tradition, Sufi teachings, gradual perfection, labor education, self-awareness, wisdom, populism, social responsibility, spiritual purification, concept of education

Ahmad Yassaviy (tahminan 1103-1166) turkiy tasavvuf adabiyotining asoschisi, buyuk mutasavvif shoir va ma'naviy murabbiy sifatida Sharq ma'rifiy tafakkuri tarixida alohida o'rin egallaydi. U hozirgi Qozog'iston hududidagi Sayram shahrida tug'ilgan. Otasi Shayx Ibrohim, onasi Oysha bibi bo'lib, u zot diniy-ma'rifiy muhitda voyaga yetgan. Yoshligidan ilmga chanqoqligi bilan ajralib turgan Yassaviy dastlab otasidan saboq oladi, keyinchalik esa mashhur shayx Arslonbobdan ta'lim oladi. Uning ilmiy va ruhiy kamolotida Buxoroda yashab ijod qilgan mashhur tasavvuf namoyandasi Yusuf Hamadoniyning ta'siri beqiyos bo'lgan.

Ahmad Yassaviy nafaqat shoir, balki murabbiy, ustoz, ruhiy yetakchi sifatida ham faoliyat yuritgan. U asos solgan Yassaviya tariqati butun Turkiston hududida keng yoyilib, ko'plab shogirdlar orqali xalqning ma'naviy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Uning asosiy asari "Devoni Hikmat" tasavvufiy, axloqiy va pedagogik qarashlarning yuksak namunasi bo'lib, unda inson tarbiyasi, nafsni tiyish, sabr-qanoat, halollik, tavoze, ilm va amal birligi kabi masalalar keng yoritilgan. Yassaviy yashagan davr XII asr Markaziy Osiyo tarixida murakkab va o'zgarishlarga boy davr edi. Siyosiy beqarorlik, ijtimoiy tengsizlik va ma'naviy tanazzul sharoitida u xalqni ichki poklanish, iymon va axloqiy uyg'onishga da'vat etdi. Uning pedagogik g'oyalari aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan bo'lib, insonni komillikka yetkazish yo'lida bosqichma-bosqich ruhiy tarbiya zarurligini ta'kidlaydi.

Ahmad Yassaviy ta'lim-tarbiyani faqat nazariy bilim bilan cheklamagan. U ilmni amal bilan bog'lash, bilimni hayotda qo'llash, ustoz va shogird o'rtasidagi ma'naviy aloqani mustahkamlashni muhim deb bilgan. Uning qarashlarida ustoz, faqat bilim beruvchi emas, balki ruhiy yo'l boshchi, axloqiy namuna hamdir. Shogird esa sabrli, itoatkor, ilmga tashna va o'z ustida ishlashga tayyor bo'lishi lozim.

"Devoni Hikmat"da uchraydigan quyidagi satrlar uning pedagogik qarashlarini yaqqol ifodalaydi:

Ilm o'rganib amal qilmay yo'lda qoldim,

Haqiqatni topmay o'zimdanda o'zim to'ldim.

Bu misralarda Yassaviy ilmni faqat o'rganish emas, balki uni amaliyotga tatbiq etish zarurligini ta'kidlaydi. U nazariy bilimning o'zi insonni komillikka olib bormasligini, haqiqiy o'sish uchun ichki poklanish va amaliy harakat zarurligini ko'rsatadi. Bu esa pedagogik jarayonda bilim, tarbiya va shaxsiy namunaning uzviy birligini anglatadi.

Yassaviy inson tarbiyasini bosqichma-bosqich ruhiy kamolot jarayoni sifatida ko'radi. Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari orqali inson o'z nafsini yengadi, axloqini poklaydi va ruhiy yuksalishga erishadi. Bu tizim pedagogik jihatdan qaralganda, shaxsning izchil rivojlanish modelini ifodalaydi. Unda avvalo tashqi tartib-intizom va qonun-qoidalarga rioya qilish (shariat), keyin ichki intizom va ustozga ergashish (tariqat), so'ngra chuqur anglash va idrok (ma'rifat), nihoyat, ruhiy kamolot (haqiqat) bosqichlari mavjud.

Ahmad Yassaviy pedagogik merosining yana bir muhim jihati - xalqchil tilda yozganidir. U o'z hikmatlarini murakkab arab yoki fors tilida emas, balki sodda turkiy tilda bayon qilgan. Bu esa uning ta'limiy g'oyalari keng xalq ommasiga yetib borishini ta'minlagan. Pedagogika nuqtai nazaridan bu - ta'limning ommaviyligi va tushunarligini ta'minlash tamoyiliga to'liq mos keladi. Shuningdek, Yassaviy yosh avlodni kamtarlik, halollik, sabr, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik va Allohga muhabbat ruhida tarbiyalashni asosiy maqsad deb bilgan. Uning fikricha, inson o'zini tarbiyalamasdan jamiyatni tuzata olmaydi. U shaxsiy mas'uliyat va ichki intizomni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko'radi.

Yassaviy ta'limni oddiy bilim berish jarayoni sifatida emas, balki qalb tarbiyasi sifatida talqin etadi. Uning nazarida haqiqiy ilm - bu insonni o'zgartiradigan, uni ichki jihatdan poklaydigan, xulq-atvorini go'zallashtiradigan ilmdir. Shuning uchun ham u zohiriy bilim bilan botiniy poklanishni bir-biridan ajratmaydi. Bu qarash pedagogik nuqtai nazardan juda muhimdir, chunki u ta'limni faqat aqliy jarayon emas, balki axloqiy va ruhiy o'sish jarayoni sifatida ko'rsatadi. Bugungi kunda ham ta'lim tizimida bilim va tarbiya uyg'unligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Yassaviy esa bu uyg'unlikni o'z davridayoq amaliyotga joriy etgan.

Yassaviyning yana bir muhim pedagogik g'oyasi - xalqchillikdir. U o'z hikmatlarini murakkab arab yoki fors tilida emas, balki turkiy tilda bayon etgan. Bu orqali u ilmni faqat saroy yoki madrasa doirasida emas, balki keng xalq ommasiga yetkazishni maqsad qilgan. Bu holatni pedagogik demokratizm deb atash mumkin. Ya'ni ta'lim barcha uchun ochiq bo'lishi kerak. Bugungi kunda inkluziv ta'lim, ochiq ta'lim platformalari haqida gapirilayotgan bir davrda Yassaviyning bu yondashuvi nihoyatda ilg'or fikr sifatida baholanishi mumkin.

Ahmad Yassaviy "Devoni Hikmat" asarini ilmiy yo'l bilan o'rganayotgan tadqiqotlarda uning til tanlovi aynan xalq tilida bo'lganini qayd etishadi. Ya'ni u shu davr uchun murakkab arab va fors tili o'rniga Turkiy tilni tanlab, tasavvufiy-ma'naviy g'oyalarni keng xalq ommasiga yetkazgan. Bu ilm ma'rifatning faqat saroy, madrasa yoki ilmiy doiralarda qolib ketmasligi, balki oddiy odamning ham tushunadigan tilida bo'lishi uchun qilinagan tanlovdir.

Masalan, 2025 yilda chop etilgan ilmiy maqolada qayd etilishicha, Yassaviy:

- Arab va fors o'rniga turkiy tilni diniy ma'naviy bilim vositasi sifatida ishlatgan - bu uning yozayotgan hikmatlari oddiy xalq uchun tushunarli bo'lishini ta'minlagan;
- Shu sababli uning ta'limotlari va ma'naviy qarashlari Markaziy Osiyo, Anatoliya, hozirgi Turk davlatlari bo'ylab keng tarqalgan.

Bu pedagogik nuqtai nazardan "ta'limning ommaviyligi va demokratizmi" deb atash mumkin - ya'ni ilm faqat bir guruh uchun emas, balki barcha uchun ochiq bo'lishi kerak degan prinsipni amalda ko'rsatadi.

Komil inson tushunchasi - Sharq tasavvuf falsafasida juda muhim pedagogik ideal sanaladi. Bu kontsept o'zbek-turkiy ma'naviy tafakkurda chuqur ildiz otgan bo'lib, insonning nafaqat aqliy bilimga ega bo'lishi balki ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxsga aylanishini anglatadi. Shu jihatdan komil inson - bu buyuk pedagogik maqsad bo'lib, u orqali ta'limning eng oliy muradi ifodalanadi.

Bu g'oya tasavvuf asosida shakllangan. Tasavvuf ta'limotida insonning ichki ma'naviy tomonlarini rivojlantirish, ruhiy kamolotga erishish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu nuqtai nazar komil insonning ma'naviy barkamollik, axloqiy yetuklik, o'zini va jamiyatni anglash orqali amalga oshadi. Mazkur yondashuvda faqat nazariy bilim emas, balki ruhiy, axloqiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanish ham ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'ladi.

Tarixan "komil inson" - bu insonning to'la-to'kis rivojlanish idealidir. Sharq falsafasi va tasavvuf an'alarida bu tushuncha insonning ichki dunyosi, ruhiy pishiq-po'stligi, axloqiy mukammallik va boshqalar bilan belgilanadi. Bu faqat ilmi bo'lish emas, balki axloqli, hurmatli, odamlar bilan tiniq aloqalar qura oladigan, xizmat sezadigan va jamiyatga foydali bo'ladigan shaxsni anglatadi.

Komil inson bir nechta o'lchamlardan iborat:

Ma'naviy yetuklik: ruhiy qiyofa, poklanish, o'zini tanish, nafsni yengish;

Axloqiy fazilatlar: halollik, sabr-toqati, mehr-muhoabbat, kamtarlik;

Bilim va amal uyg'unligi: ilmni hayotda qo'llash;

Jamiyatga xizmat: boshqalarga yordam berish, ijtimoiy foyda keltirish.

Bu model ta'limning yagona maqsadi sifatida qaraladi, chunki u shaxsni uzluksiz va kompleks ravishda o'stiradi.

Ahmad Yassaviy tasavvufiy eposlarida komil inson konsepsiyasi to'g'risidagi fikrlar bevosita ifodalanmasa ham, uning hikmatlarida va ruhiy yo'nalishida bu g'oya aniq seziladi. Ya'ni u komillikka erishishni ma'naviy progress, nafsni yengish va axloqiy kamolot orqali amalga oshadi.

"Maqsad - shaxsni ichki barkamollikka yetaklash", deb qaraydigan yondashuv tasavvufda ko'p uchraydi. Unda inson avvalo tashqi dunyoni emas, o'zini o'rganishi kerak. Bu juda muhim pedagogik tamoyildir - har bir shaxs avvalo ichki resurslarini anglab yetib, ularni ijobiy yo'nalishda o'stirishi kerak. Bu nuqtai nazar keskin ravishda Yassaviy ta'limotida seziladi. Ilmiy tadqiqotlarda Yassaviyning ta'limotida

insonning ma'naviy qiyofasi ko'plab jarayonlar orqali shakllanishi aytiladi: axloqiy e'tibor, xizmat, ijtimoiy mas'uliyat, halollik, sabr-toqati va boshqalar. Bu jarayonlar orqali shaxs komil insonga yo'naladi.

Pedagogik ideal sifatida komil insonning tarkibiy elementlari

Ichki poklanish (ruhiy barkamollik): Yassaviyning ta'limotida ruhiy poklanish - komillikka erishish yo'lidagi muhim qadamdir. Bu - insonni ichki zulmatdan chiqarib, haqiqiy maqsad sari olib boradi. Shu jihat uning tasavvufiy g'oyalardagi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Ruhiy barkamollikka erishishning pedagogik ahamiyati shundaki, o'quvchi yoki shogird tashqi bilimlardan oldin o'zini anglash, nafsni yengish va ichki intizomni mustahkamlashni o'rganadi. Bu bilimlar faqat nazariy emas, balki hayotiy tajriba orqali o'zlashtiriladi.

Axloqiy yetuklik va o'zini anglash: Yassaviy "ma'naviy qiyofa" g'oyasida insonning komil bo'lishi uchun axloqiy fazilatlar - halollik, sabr, hurmat, mehr - zarur deb hisoblaydi. Bu fazilatlar shaxsni faqat ilmi qilib qolmay, balki jamiyatda hurmatga sazovor, yordamchi, boshqalarga xizmat qiluvchi shaxsga aylantiradi. O'zini anglash - pedagogik jarayonning muhim bosqichi bo'lib, bu shaxsni halol introspeksiya (refleksiya) orqali ichki xatolarini tan olishga, ularni tuzatishga undaydi. Bu bugungi zamonaviy pedagogik psixologiyada ham yuksak samarali usul sifatida tan olingan.

Ahmad Yassaviy pedagogik g'oyalari va tasavvufiy ta'limoti Markaziy Osiyo ma'naviy tafakkurining eng muhim merosi sifatida bugungi kun uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning pedagogik tizimi nafaqat ilm berish, balki ma'naviy tarbiya, axloqiy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat va ruhiy barkamollikni shakllantirishga qaratilgan.

Yassaviy ta'limining markazida shaxsning komil insonga aylanishi g'oyasi turadi. Bu konsepsiya shogirdning nafsini tiyish, sabr-toqati, halollik, kamtarlik, xizmat qilish va jamiyatga foydali bo'lish kabi axloqiy fazilatlar orqali rivojlanishiga asoslangan. Shuningdek, u ilm va amal uyg'unligini, ustoz-shogird munosabatidagi hurmat va namuna orqali tarbiyani amalga oshirishni ta'kidlaydi.

Yassaviyning pedagogik demokratizmga oid qarashlari, ya'ni ilmni faqat saroy yoki madrasa doirasida emas, balki keng xalq ommasiga yetkazish maqsadi, uning ta'lim tizimini yanada ommabop va inkluziv qiladi. Bu, bugungi zamonaviy pedagogik printsiplarga yaqin bo'lib, ta'limning barcha uchun ochiqligi va tushunarli bo'lishi g'oyasini ilgari suradi.

Shuningdek, Yassaviy pedagogikasida bosqichma-bosqich kamolot tamoyili mavjud bo'lib, shogirdni tayyor shaklda qabul qilmasdan, uning ichki ruhiy va axloqiy o'sishini asta-sekin shakllantirishga urg'u beriladi. Shu yo'l bilan u shaxsni ichki barkamollik va ijtimoiy foydaga erishadigan shaxsga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviy pedagogik g'oyalari ilm, amaliyot, axloq, ma'naviyat va xizmatni birlashtirgan yagona tizimni tashkil etadi. Ustoz-shogird an'anasiga tayanish, xalqchilik, mehnat tarbiyasi, sabr va ruhiy barkamollik kabi tamoyillar Yassaviy pedagogikasining tayanch ustunlaridir. Bu g'oyalar nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy ta'limni boyituvchi, shaxsni to'liq rivojlantiruvchi manba sifatida ham qadrlidir.

Ahmad Yassaviy merosi bugungi pedagogik tafakkurda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, axloqiy yetuklik va jamiyatga foydali bo'lish kabi tamoyillarni shakllantirishda amal qiluvchi nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning pedagogik g'oyalari yosh avlodni ilmi, axloqli, ma'naviy yetuk va jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan yagona sistematik model hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Devoni Hikmat" — Xo'ja Ahmad Yassaviy hikmatlar to'plami.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. *Science and Education*, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. *Journal of Institutional Research South East Asia*, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. *Science and Education*, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. *Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology*, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. *Science and Education*, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 11-15.

11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариёв, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.

25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.

26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.